XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2024 - yil 6 - yanvar VI-76-2-4-209-K/24 Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahar bo‘yicha 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashning minimal miqdoriga koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429- va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, Qashqadaryo viloyat Soliq boshqarmasining 2023-yil 4-dekabrdagi 19/10-98159-sonli xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Shahrisabz shahrida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi **1 gektar** uchun mutlaq miqdori **35,8 mln.so‘m** hamda jismoniy shaxslarga **1 kv.metr** uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori **320 so‘m**, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda shaharda ko‘chmas mulklarga **1 kv.metr uchun 1,2 mln. so‘m** minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda viloyat Soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, Shahrisabz shahar bo‘yicha 2024-yilda yuridik va

jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsiyentni qo‘llash hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga **1 kv.metr** uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Shahrisabz shahrining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga ko‘ra, 2024-yilda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda **1 gektar** yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsiyentlar **1-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo‘yicha *(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari)* mutlaq miqdorda **1 kv.metr** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsiyent **2-ilovaga** hamda yuridik shaxslar uchun *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)* mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga **1 kv.metr** uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashining keltirilgan mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, **1- va 2-ilovaga** asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida **0,7 dan 3,0 miqdorda** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Shahrisabz shahar soliq inspeksiyasiga 2024-yil uchun yuridik shaxslarning *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)* mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlash vazifasini bajarish belgilansin.

7. Shahrisabz shahar hokimligi Axborot xizmati (G.Uzoqova) mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashining 2023-yil 13-yanvardagi “Shahrisabz shahar yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-56-1-4-0-K/23-sonli hamda 2023-yil 7-fevraldagi “Shahrisabz shaharda 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning

minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida”gi VI-57-11-4-0-K/23-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari" bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Sh.Botirov**

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

KOEFFITSIYENTLAR

T/R	**Hududlar**	**Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi** *(SK 429 -moddasi)*	**Koeffitsiyent** *(0,5 dan 2 gacha)*	**2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi** *(so‘mda)*
1	Shahrisabz shahri	35 840 000	1,15	41 216 000

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) **mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi**

KOEFFITSIYENTLAR

T/R	**Hududlar**	**Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi** *(SK 437 - moddasi)*	**Koeffitsiyent** *(0,5 dan 2 gacha)*	**2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi** *(so‘mda)*
1	Shahrisabz shahri	320	1,15	368

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
3-ilova

Yuridik shaxslar uchun *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)* **mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan**

KOEFFITSIYENTLAR

T/R	Hududlar	O‘rnatilgan minimal qiymat	Qo‘llanilgan koeffitsiyent (0,5 gacha kamayuvchi)	Minimal qiymat
2	Shahrisabz shahri	1 200 000	1.00	1 200 000

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
4-ilova

PDF.js viewer https://edo-local.soliq.uz/edo/api/og-project-files/content/128457374

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI
SOLIQ QO‘MITASI
QASHQADARYO VILOYATI SOLIQ
BOSHQARMASI
SHAHRISABZ SHAHAR SOLIQ
INSPEKSIYASI
181300, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko‘chasi 36-uy.
Tel: (75) 522-87-53, shahrisabz_shar@soliq.uz

2023 - yil 22 - dekabr

null-05741 - son

Xalq deputatlari
Shahrisabz shahar
Kengashiga

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer solig‘ining aniqmiq dorlarini belgilash nazarda tutilgan.

Shunga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari ushbu kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi kuzda tutilgan.

O‘z navbatida tuman va shahar halq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘I stavkalarini belgilashi huquqi berilgan.

Soliq kodeksiga asosan tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazishlari kerak.

wer https://edo-local.soliq.uz/edo/api/og-project-files/content/128457374

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2024-yil qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* uchun daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida koeffitsiyentlarni ilovaga muvofiq taklif qiladi.

Ilova: Bir varaqda.

Inspeksiya boshlig‘i **X.Eshboltayev**

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
5-ilova

Шаҳрисабз шаҳридаги маҳалла ва қишлоқ фуқаролар йиғинлари бўйича юридик ва жисмоний шахслар учун белгиланган ер солиғи базавий ставкаларига қўлланиладиган коэффицентлар

2024 йил

№	Маҳалла фуқаролар йиғинлари номи	Юридик шахслар учун ер солиғи ставкаси		Жисмоний шахслар учун ер солиғи ставкаси	
		Коэффицент миқдори	Солиқ суммаси (1 гектар учун, сўмда)	Коэффицент миқдори	Солиқ суммаси (1 кв.м учун, сўмда)
1	Ўрда МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
2	Зингирон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
3	Кулоллик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
4	Заргарлик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
5	Қўшховуз МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
6	Қозигузар МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
7	Зиёкор МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
8	Х.Бахши МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
9	Кунчиқар МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
10	Қушхона МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
11	Уйчилик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
12	Намозгох МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
13	Оқ сарой МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
14	Хабарлик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
15	Наврўз МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
16	Сариосиё МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
17	Бўстон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
18	Ғалаба МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
19	Ипак Йули МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
20	Бунёдкор МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
21	Кеш МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
22	Дўстлик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
23	Турон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
24	Пиллакашлик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
25	Тутзор МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
26	Тепарлик МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
27	Файзобод МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
28	Камолот МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
29	Боғибахор МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
30	Маърифат МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
31	Синабоғ МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
32	Янгиҳаёт МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
33	Қорасув МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
34	Яшил диёр МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
35	Чоштепа МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
36	К.Новқат МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
37	Аммагон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
38	Наматон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
39	Гулистон МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0
40	Уймовут МФЙ	1,00	41 400 000,00	1,15	368,0

Страница 1
Страница 2

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-76-2-4-209-K/24-son qaroriga
6-ilova



